

## O'ZBEK ADABIYOTIDA TARIXIY ROMANLAR

**Sharipova Mahfuza,**

Namangan davlat pedagogika institute magistranti  
[mahfuzasharipova@gmail.com](mailto:mahfuzasharipova@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tarixiy roman janri, uning xususiyatlari va tiplari o'rganiladi. Muallif roman janrining epik xarakterini, hayotni keng qamrovli tarzda aks ettirish imkoniyatlarini ta'kidlaydi. Tarixiy haqiqat va badiiy to'qima uyg'unligi tahlil qilinib, yozuvchilarning tarixiy manbalarni obraz yaratishda mohirona qo'llashi yoritiladi. Dunyo adabiyotidagi mashhur yozuvchilar, jumladan Aleksandr Dyuma, hamda o'zbek tarixiy romanining asoschilari — Abdulla Qodiriyning O'tkan kunlar, Oybekning Qutlug' qon va Navoiy, Odil Yoqubovning Ulug'bek xazinasi, Pirimkul Qodirovning Yulduzli tunlar kabi asarlari tahlil qilinadi. Ushbu romanlar orqali tarixiy voqealar, milliy o'zlik va xalqning ma'naviy olami badiiy ifoda orqali ochib beriladi.

**Kalit so'zlar.** tarixiy roman, epik janr, badiiy to'qima, tarixiy haqiqat, obraz, o'zbek adabiyoti, milliy o'zlik, ma'naviyat.

## ÖZBEK EDEBİYATINDA TARİHİ ROMANLAR

**Sharipova Mahfuza,**

Namangan devlet pedagogi enstitüsü yüksek lisans öğrencisi

**Özet.** Bu makalede tarihi roman türü, onun özellikleri ve türleri ele alınmaktadır. Yazar, roman türünün epik karakterini ve hayatı geniş kapsamlı bir şekilde yansıtmaya imkânlarını vurgular. Tarihi gerçeklik ile sanatsal kurgu arasındaki uyum analiz edilmekte, yazarların tarihî kaynakları karakter yaratmada ustaca kullanmaları incelenmektedir. Dünya edebiyatındaki ünlü yazarlar, özellikle Alexandre Dumas, ve Özbek tarihi romanının öncülerinden olan Abdulla Kadiri'nin Geçmiş Günler, Oybek'in Kutlu Kan ve Navai, Odil Yakubov'un Uluğbek'in Hazinesi, Pirimkul Kadirov'un Yıldızlı Geceler gibi eserleri analiz edilmektedir. Bu romanlar aracılığıyla tarihi olaylar, milli kimlik ve halkın manevi dünyası sanatsal anlatım yoluyla ortaya konmaktadır.

**Anahtar kelimeler.** Tarihi roman, epik tür, sanatsal kurgu, tarihi gerçeklik, karakter, Özbek edebiyatı, milli kimlik, maneviyet.

## ИСТОРИЧЕСКИЕ РОМАНЫ В ЛИТЕРАТУРЕ УЗБЕКИСТАНА

**Шарипова Махфуза,**

магистрантка Наманганского государственного педагогического института

**Аннотация.** В данной статье рассматривается жанр исторического романа, его особенности и типология. Автор подчеркивает эпический характер романа как жанра, способного всесторонне отражать жизнь. Анализируется гармония между исторической правдой и художественным вымыслом, а также умелое использование исторических источников писателями при создании ярких образов. Особое внимание уделено произведениям известных мировых авторов, в том числе Александра Дюма, а также основоположников узбекского исторического романа – таких как “Прошедшие дни” Абдуллы Кадыри, “Священная кровь” и “Навои” Айбека, “Сокровище Улугбека” Одила Якубова и “Звёздные ночи” Пиримкула Кадырова. Эти произведения раскрывают исторические события, национальную идентичность и духовный мир народа через художественное выражение.

**Ключевые слова.** Исторический роман, эпический жанр, художественная фактура, историческая правда, образ, узбекская литература, национальная идентичность, духовность.

## HISTORICAL NOVELS IN UZBEKISTAN LITERATURE

**Sharipova Mahfuza,**

*Namangan state pedagogical institute's master's student*

**Abstract.** This article explores the genre of the historical novel, its characteristics, and typology. The author highlights the epic nature of the novel as a large-scale narrative form, emphasizing its capacity to depict life comprehensively. It analyzes the harmony between historical truth and artistic fiction, focusing on how writers skillfully use historical sources to create vivid characters. Special attention is given to the works of prominent global authors, including Alexandre Dumas, as well as the pioneers of Uzbek historical novels — such as Abdulla Qodiriy's *O'tkan kunlar*, Oybek's *Qutlug' qon* and *Navoiy*, Odil Yoqubov's *Ulug'bek xazinasi*, and Pirmqul Qodirov's *Yulduzli tunlar*. The paper discusses how these works contribute to understanding historical events, national identity, and the spiritual world of the people through rich literary expression.

**Keywords.** Historical novel, epic genre, artistic texture, historical truth, image, Uzbek literature, national identity, spirituality

Bilamizki, badiiy adabiyotda asarlar tur va janrlariga, shuningdek, mavzu ko'lamiga ko'ra farqlanadi. Roman (fr.roman – "lotin tilida emas, roman tillaridan birida yozilgan" ma'nosida) – zamonaviy adabiyotda epik turning yirik hajmli janri. Romanga ta'rif berilganda, odatda, uning hajman kattaligi, hayotni keng ko'lamda tasvirlashi, qahramon hayotidan katta davrni olib, turli ijtimoiy munosabatlar bilan bog'lab talqin qilishi, ko'plab va turfa kishilar taqdirlari orqali jamiyatning joriy holatini aks ettira olishi, murakkab ko'p chiziqli syujetga ega bo'lishi kabi janr xususiyatlari qayd etiladi.[1,60]

Romanlar mavzusi, qamrab olingan voqealar ko'lamiga ko'ra bir necha xilga bo'linadi. Jumladan, tarixiy roman, falsafiy roman, fantastik roman, sarguzasht roman, ijtimoiy-siyosiy roman, avtobiografik roman kabilar.[2,46] Biroq tarixiy romanda falsafiy mushohadalar yoki avtobiografik romanda ijtimoiy-siyosiy voqealar tahliliga keng o'rin berilgan bo'lishi mumkin. Shu boisdan, romanlarni mavzusiga ko'ra guruhlariga ajratish nisbiy bo'ladi.

Badiiy adabiyotning asosiy vazifalaridan biri o'tmishda sodir bo'lgan voqealar, yaqin yoki olis o'tmishda yashagan tarixiy shaxslarga bag'ishlangan asarlar yaratishdir. Tarixiy asar yozish ancha mushkul ijodiy jarayon. Tarixni qaytadan tiriltirish, tarixiy shaxslarga jon ato etish, yozuvchidan katta mahorat talab qiladi. Shuningdek, muallif tarixiy shaxslar bilan birga ular yaratayotgan obrazni yorqin mujassamlashtirish, tasvir etilayotgan davr manzarasini keng va atroflicha yoritish maqsadida to'qima obrazlarni asarga olib kiradi. Romanda to'qima obraz va voqealardan foydalanishning aniq chegarasi, qat'iy o'lchovi bo'lmasa-da, bu unsurlarning me'yor tarixiy asar saviyasini belgilovchi asosiy omil hisoblanishini mahoratli muallif yaxshi anglaydi. Shu bois doim tarixiy haqiqat va badiiy to'qima o'rtasidagi oltin ko'priknini izlaydi.[3,86] Tarixiy mavzuda asar yozuvchi muallifdan tasvir etilayotgan davr hayotini yoki tarixiy shaxsning hayoti va faoliyatini tarix hujjatlari (arxiv materiallari, xotiralar va h.k.) asosida o'rganish, shu davrning tarixiy koloritini haqqoniy ifodalash, personajlar nutqida o'sha davr kishilari tiliga xos xususiyatlarni aks ettirish talab etiladi.

Yozuvchi yoki shoirning tarixiy mavzuga murojaat etishdan maqsadi, kitobxonlarni tarixiy o'tmishdagi muhim voqealar, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati bilan tanishtirish, ularda o'z xalqining tarixiy o'tmishiga nisbatan hurmat tuyg'usini uyg'otish va shu yo'l bilan ma'rifatli avlodni tarbiyalash, zamondoshlarni tarixiy o'tmish voqealaridan, tarixiy shaxslarning hayoti va

faoliyatidagi ibratli tomonlardan saboq olishga undash, bugungi voqelikdagi ayrim noxush voqea va hodisalarga tarixiy o'tmish voqealarini tasvirlash orqali munosabat bildirishdir.

Tarixiy mavzudagi asarlar asosan nasrning roman, qissa va hikoya, dramaturgiyaning tragediya va drama, shuningdek, she'riyatning doston, ballada, lirik she'r kabi janrlarida yoritiladi. Jahon adabiyotida tarixiy o'tmish mavzusi Esxil, va U.Shekspir tragediyalari, Haynrix Man, V.Skott, Prosper Merime, A.Dyuma, J.Golsuorsi, L.N. Tolstoy, A. Konan Doyl va boshqa yozuvchilarning romanlarida katta mahorat bilan yoritilgan.

Yuqorida nomi keltirilgan jahon adabiyotidagi tarixiy roman mualliflariga to'xtaladigan bo'lsak, Aleksandr Dyuma ijodi ancha sarmahsul ekanligiga guvoh bo'lamiz. Fransuz romanisti bo'lgan ijodkor yuzdan ortiq tarixiy-sarguzasht romanlar yaratgan. "Uch mushketyor", "Graf Monte-Kristo", "Qora lola", "O'n yildan so'ng", "Yigirma yildan so'ng", "Qirolicha Margo" shular jumlasidandir. Adib ijodida, ayniqsa, Yunoniston, Rim va Fransiya tarixiga oid ko'plab ma'lumotlarni qamrab olgan "Askanio" romani muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur roman badiiyati jihatdan ijodkorning avvalgi ishlariga nisbatan birmuncha yuqoriroq bo'lib, unda bosh qahramon Askanio ma'suma va go'zal qiz Kolumbaga bo'lgan muhabbatida sobit turgan yigirma yoshli yigit sifatida gavdalanadi. Aynan bir-biridan sarmazmun romanlari tufayli ham Aleksandr Dyuma jahon adabiyotida "javohirlar xazinasi" [4,75] deya e'tirof etiladi.

O'zbek adabiyotida ham tarixni badiiy asarlarida gavdalantirgan bir qancha ijodkorlar mavjud. Xususan, adabiyotimizdagi ilk tarixiy asar muallifi Abdulla Qodiriy den tan olingan. Yozuvchining „O'tkan kunlar“ romani o'zbek adabiyotida maydonga kelgan ilk tarixiy roman deya e'tirof etiladi. Shuningdek, "Mehrobdan chayon" ham adibning adibning kamtarona ta'biri bilan aytganda "havaslanib" bitgan ikkinchi romani edi. Har ikki asarni ham o'qir ekanmiz, ijodkorning badiiy so'zida betakror joziba mujassamlanganiga guvoh bo'lamiz. Otabek, Kumush, Zaynab, Anvar, Ra'no, Abdurahmon, Xudoyorxon kabi tarixiy va to'qima obrazlar zamirida "Tariximizning eng kirlik va qora"[5, 3] kunlari haqida hikoya qiladi. Ushbu tarixiy romanlarni o'qir ekanmiz, xalqimizning zolim hukmdor qo'l ostida naqadar aynachli ahvolda qolganiga amin bo'lamiz.

Adabiyotimizning yana bir zabardast vakili Oybek „Qutlug' qon“ romanini yozish orqali Qodiriy boshlab bergan tarixiy roman an'analari rivojlantirdi va „Navoiy“ romani bilan tarixiy-biografik roman janriga tamal toshini qo'ydi. "Qutlug' qon" romanida o'zbek xalqining yaqin o'tmishdagi rus bosqinchilari va mahalliy amaldorlar tomonidan ezilganligi, xalqning o'z ahvolini anglab ularga qarshi bosh ko'targani badiiy tasvirlangan. O'zbek xalqining milliy ozodlik uchun olib borgan kurashlarida 1916-yilgi qo'zg'olon muhim o'rin egallaydi.

"Garchi men roman voqealari yuz bergan vaqtda hali kichik bola bo'lsam ham xalq turmushini ko'rdim. Kambag'allarning qorong'u va dim uy-joylarini, boylarning atrofi baland-baland devorlar bilan o'ralgan hashamatli imoratlarini, muzdek hovuzi bo'lgan bog'larini ko'rdim. Men keyinchalik romanimda tasvir etilgan turmush va ijtimoiy munosabatlarning ko'pgina tomonlarini o'sha vaqtdayoq chanqoqlik bilan kuzatgan va tushungan edim" - deya yozgan edi Oybek. [7,1]

Romanda o'zbeklar tarixining chirkin va qora kunlari, oq podsho istilosi davri, birinchi jahon urushida yengilayotgan podsho hukumatiga mardikor yollash va buni Turkiston xalqlari orasidan yig'ishi. Bunga qarama-qarshi yo'lda harakat qilgan, haqiqat va sevgisi uchun kurashgan Yo'lbegning bu yo'lda halok bo'lishi tasvirlangan.

"Navoiy" tarixiy-biografik roman janrining nodir namunasidir. Roman voqealari 18 yoshli yigit — Alisher Navoiyning Samarqanddan Hirotga qaytishi bilan boshlanadi va Navoiy hayotining eng samarali va eng sarmazmun davrlarini qamrab oladi. Asar voqealari Navoiyning o'limini aks ettirish bilan yakunlanadi. Asarda Navoiy tarjimai holining asosiy bosqichlari hayot haqiqatiga mos holda yorqin tasvirlangan. Asarda Navoiyning olijanob fazilatlarini, ajoyib xislatlari, Vatan, xalq va adabiyot oldidagi buyuk xizmatlari birin-ketin ochilib boradi. Romanda Husayn Boyqaro, Xadicha begim, Mo'min Mirzo, Darveshali, Binoiy, Majididdin singari tarixiy shaxslar obrazi ham berilgan.

Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanida olim va shoh Mirzo Ulug'bekning fojiali hayoti, umrining so'nggi damlaridagi hayotiy ziddiyatlar zamiridagi faoliyatining badiiy talqini haqida so'z yuritiladi. O'zbek adabiyotining iste'dodli namoyondasi, so'z san'atkori Odil Yoqubov bir qator asarlari bilan nasr taraqqiyotda katta va o'chmas iz qoldirdi. Adibning "Ko'hna dunyo" romanida Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy obrazlari yaratilishi bilan uzviylikda, ular yashagan murakkab davr muhiti, uning inson ruhiyatiga ta'siri talqin etilgan. "Ulug'bek xazinasi" romanida esa Mirzo Ulug'bekning umrini so'ngi damlaridagi tarixiy ziddiyatlar ifodalangan. Romanda Ali Qushchining hayoti, ijodi, amalga oshirayotgan ishlarining Mirzo Ulug'bek hayoti bilan bog'liqligi haqidagi talqinlar haqida so'z yuritiladi.

"Tarixiy faktlardan oziqlangan Odil Yoqubov romanda Mirzo Ulug'bek va o'g'li Mirzo Abdulatif ziddiyatlaridan, uning toj-taxt uchun olib borayotgan kurashlaridan iztirob chekayotgan xalq hayoti, uning murakkablashish jarayoni, podshohlikdagi kurashlardan ozor chekkan xalq fojealari juda asosli ifodalangan." [6,200] Mirzo Ulug'bek ruhiy olamidagi qarama-qarshiliklarning vujudga kelish sabablari, istiroblari monologik va diologik nutq asosida tasvirlanganligini alohiha qayd etadi. Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanidagi talqinlar badiiy adabiyotda Mirzo Ulug'bek va Ali Qushchi o'rtasidagi insoniy munosabatlarning mavjudligini ko'rsatadi. Har ikki buyuk siymoning badiiy obrazi juda asosli talqin etilganligini isbotlaydi. Roman voqealari rivojida monologik, diologik nutqning o'ziga xos badiiy funksiyasi mavjudligi isbotlangan.

"Yulduzli tunlar" – o'zbek yozuvchisi Pirmqul Qodirov qalamiga mansub tarixiy roman. Asarda Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti haqida so'z yuritiladi. Muallif mazkur roman ustida o'n yil davomida ish olib borgan. "Yulduzli tunlar"ga „Boburnoma“ hamda „Humoyunnoma“ asarlari asos bo'lgan. Bu asar dunyoga mashhur o'zbek hukmdori, atoqli shoir, o'z davrining qomusiy bilimlari bilimdoni Zahiriddin Muhammad Bobur hayotiga bag'ishlangan asar bo'lib, zamonaviy o'zbek romanchiligining yetuk namunasi hisoblanadi. O'zbekiston Xalq yozuvchisi Pirmqul Qodirov ushbu roman o'zining talabalik yillaridagi Amir Temur va Bobur Mirzo shaxslariga ixlosmandligi hosilasi ekanini aytgan.

"Bobur Mirzoning hayoti va faoliyatiga oid mavzular ummonday cheksiz. Bu ummonda o'nlab, yuzlab adabiy kemalar suzishi mumkin. «Yulduzli tunlar» ana shu majoziy kemalardan biri tarzida yuzaga keldi. Uni 1972-yilda ilk bor yozib nashrga topshirganimda tog'day bir yuk yelkamdan tushganday bo'lgan edi. Lekin mustabid tuzum tazyiqi ostida roman olti yil chop etilmay yotdi. Bu yillar davomida o'sha zalvarli yukni yana yelkamda ko'tarib yurganday bo'ldim. Bobur mirzo temuriylar sulolasini halokatdan qutqarib, asrdan-asrga, mamlakatdan-mamlakatga olib o'tganligi, bu ulug' sulola Hind zaminida yana uch yuz yildan ortiq davr surganligi o'sha yillardayoq dilimda hayrat va iftixor tuyg'usini uyg'otgan edi", - deb yozadi

Xulosa o'rnida shu aytish mumkinki, mazkur janrning o'rganilishi orqali adabiyotshunoslikda nafaqat estetik mezonlar, balki tarixiy haqiqat, milliy tafakkur, voqelikni badiiy aks ettirish masalalari ham chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, tarixiy romanlarning ilmiy jihatdan o'rganilishi ularning adabiy jarayondagi o'rnini aniqlash, janr xususiyatlarini ochib berish va yangi yondashuvlar orqali mazmunan boyitishga xizmat qiladi. Kelgusida bu yo'nalishda izlanishlar davom ettirilishi, yangi yondashuvlar va tadqiqotlar paydo bo'lishi bilan tarixiy romanlar adabiyotshunoslik ilmining muhim tarmoqlaridan biri sifatida yanada rivojlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Adabiyotshunoslik lug'ati / D.Quronov, Z. Mamajonov, M.Sheraliyeva. – Toshkent: "Akademnashr", 2013.
2. Adabiyot tarixi va nazariyasi (1-qism) [o'quv qo'llanma] / L.Tashmuxeamedova. – Toshkent: Sharofat Nur Fayz, 2020.
3. "Alisher Navoiy" romanida tarixiy shaxs konsepsiyasi / Sa'dullo Quronov "Ilmiy xabarnoma. Gumanitar tadqiqotlar" – № 5. 2021 y.
4. Boynazarov F. Jahon adabiyoti: Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma. O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: "Musiqqa", 2006

6. Buriyeva, F. (2024). The gradual development of literary tradition and innovation in poetry (From the Post-1960s Period). *American Journal of Philological Sciences*, 4(11), 86-89.
7. Abdulla Qodiriy, O'tkan kunlar, T.: "ZiyoNashr", 448b.
8. Azimiddin Nasirov/"Odil Yoqubovninng "Ulug'bek xazinasi" romanida badiiy obraz yaratish" nomli maqola. December 2020 Uluslararası türk lehçe araştırmaları dergisi (Türklad) 4(2):200-205
9. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Oybek>.